

ARM haqida

ARM direktori:



Kuzieva To'xtaxon Abdurashidovna

□ Qabul kunlari: Har kuni (yakshanbadan tashqari) soat 09:00 dan 16:00 gacha.

■ Telefon: 71 230 28 58

□ e-mail:

Axborot-resurs markazi haqida:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Axborot-resurs markazi alokida binoda joylashgan. Institut ARM umumiy fondi 15247 nomda 94856 sonda bo'lib , badiiy adabiyotlar 8117 nomda 19577 sonda,o'quv adabiyotlar 1899 nomda 18214 sonda, brayl yozuvidagi adabiyotlar 26 nomda 107 sonda, audio kitoblar 226 tadan iborat. Elektron rusurslar soni 17739 ta nomdan iborat.



Institut Axborot-resurs markazida ARMAT-U dasturi mavjud. Mazkur dasturga adabiyotlarning bibliografik yozuvi kiritilib elektron katalogi yaratilmoqda. Internet mavjud, internet tezligi 300.

Institut ARMda foydalanuvchilarga tezkor va sifatlari kutubxonasi xizmatini ko'rsatish maqsadida Axborot-reusrlari bilan xizmat ko'rsatish bo'limida 3 ta elektron kutubxonasi telegramm kanali faoliyat yuritib bormoqda. Bular "Elektron kutubxona", "Muhammad Yusuf", "Alisher Navoiy" telegram kanallari orgali foydalanuvchilarga tezkor xizmatlar ko'rsatib kelinmoqda. Bundan tashqari ARMga olingan yangi adabiyotlar institut saytidagi yoritib borilmoxda.

Institut ARMga jami 4462 nafar kitobxon a'zo bo'lgan. Shulardan bakanalariyatlari ta'lim yo'nalishidagi talabalardan 3805 nafar, professor-o'qituvchilar 281 nafar, boshqa kitobxonlar 376 nafardan iborat bo'lib bular doimiy ravishda ARMdan foydalanib kelishadi. Elektron kutubxona telegram kanalidan xam xar kuni kitobxonlarimiz 24 soat davomida foydalanishadi. Axborot-resurs markaziga kitobxonlarni kunlik tashrifi 215 nafarni, professor-o'qituvchilar esa 48 nafarni tashkil etadi.



ARMda Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha an'anaviy tarzda, elektron tarzda xizmat ko'rsatish yaxshi yo'lg'a qo'yilgan. ARMda bundan tashqari kitobxonlikka jalgilish bo'yicha talabalarga bepul kofe va institut xududida sayr qilish uchun 15-20 minutga bepulga velosipedlar beriladi.

Institut ARMda xorijiy elektron resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida SCOPUS xalqaro ma'lumotlar bazasidan, EBSO hostdan, Springer kabi xalqaro ma'lumotlar bazalaridan jami 5211 ta san'at va madaniyat sohalariga oid maqolalar yuklab olingan. Mazkur xalqaro jurnallarda bosilgan maqolalardan institut professor-o'qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar xamma magistrlarimiz foydalanib kelishmoqda. Bundan tashqari mustaqil izlanuvchilar hamda doktorantlarni foydalanishlari uchun institut professor-o'qituvchilar tomonidan yozib, xalqaro jurnallarda bosilgan maqolalarni kafedralar kesimida elektron basasi yaratilgan. Yig'ma elektron katalog bo'yicha Unilibrary.uz elektron platformaga o'quv xamma ilmiy adabiyotlar to'liq matni bilan joylashtirilmoxda.



Axborot-resurs markazi alokida binoda joylashgan bo'lib, 4 ta o'quv zali mavjud , shulardan 2 tasi talabalar turar joyida va 2 tasi ARMning asosiy binosida joylashagan, jami o'rindiqlar soni 124 tani tashkil etadi. O'quv zalidagi o'rindiqlar yarim yumshoq stullardan iborat. Yozgi va qishki havo sovutish va isitish vositalari bilan ta'minlangan.

Axborot-resurs markazida kompyuterlar yangi zamoniaviy monobloklarga almashtirilgan bo'lib jami 28 tani tashkil etadi. Shundan 21 tasi professor-o'qituvchi va talabalar uchun, 7 tasi ARM xodimlari uchun. Printer 5 ta, skaner 5 ta va tezkor nusxa ko'chiruvchi apparat 2 tani tashkil etadi. 1 ta videoproektor mavjud.



ARM institutning ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, xotin-qizlar kengashi hamda kafedralar bilan hamkorlikda madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazib keladi. Jumladan, "Dramaturg+" to'garagi bilan soxa mutaxassislariga oid mashxur shaxslar bilan ijodiy uchrashuvlar, muhim va unutilmas sanalarga bag'ishlan tadbirlar va kitob ko'rgazmalarini tashkil etib boriladi.

Institutimiz axborot-resurs markazida 10 ta malakali mutaxassis kadr faoliyat yuritadi. Ular ARM fondini boyitish, institut professor-o'qituvchilariga va talabalariga axborot-bibliografiya xizmati ko'rsatish, elektron katalogdan adabiyotlar qidirish yo'llari haqida talabalarga yordam beradilar, har bir kitobxonlar bilan yakka va ommaviy ishlarni olib boradilar.



Jismoniy imkoniyati cheklangan foydalanuvchilarga Axborot-resurs markaziga kirish uchun alokida yo'lakchalar qilingan. Ko'zi ojiz talabalar uchun 26 nomda 107 sonda brayl yozuvidagi adabiyotlar bilan ta'minlangan. Audio kitoblardan foydalanishlari uchun eshitish moslamasi ya'ni qulogchinlar bilan ta'minlangan. Xalq ijodiyoiti va Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti binosiga o'zbek tilidagi badiiy adabiyotlar bo'limi uchun qo'shimcha bino ajratildi va kitoblar ko'chirib o'tkazildi. Bugungi kunda kitobxonlarga xizmat ko'rsatmoqda. Mi valo2 talabalar turar joyida xam Axborot-resurs markazining bo'limlari tashkil etilgan bo'lib, o'quv xamma badiiy adabiyotlar bilan to'liq ta'minlangan. Bundan tashqari o'quv adabiyotlarning elektron shakli xam mavjud. Talabalar turar joyidagi Axborot-resurs markazi bo'limlari fondi doimiy ravishda yangi adabiyotlar bilan boyitib borilmoxda.